

**BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI**

Sotiboldiyeva Lola Qaxramon qizi

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti

Tarix fakulteti 3 bosqich talabasi

Annatotsiya: Buxoro amirligining davlat boshqaruv tizimi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilidi. Amirlik boshqaruvining markazlashganligi, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari, mansab va unvonlari tizimlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, davlat boshqaruvi, markaziy hokimiyat, amir, viloyat, tumanlar, beklari, saroy, an'analar.

Buxoro amirligi davlat boshqaruvi asrlar davomida shakllangan davlatchilik an'alariga suyanan holda amalga oshirilgan. Oldingi davrlarda bo'gani kabi Buxoro amirligida ham davlat boshqaruvi tizimi ikki tizimli b'lib markaziy va mahalliy boshqaruviga ega bo'lgan. Markaziy hokimiyat boshqaruvini amir boshchiligidagi saroy ayonlari boshqarsa, mahalliy boshqaruv viloyatlar hokimiyati beklar qo'lida bo'lgan.¹ Viloyat beklari amir tomonidan asosan mang'it urug'i vakillaridan tayinlangan. Amirlikning poytaxti Buxoro va uning atrofidagi tumanlar amir tomonidan boshqarilgan.² Buxoro amirligida markaziy boshqaruvi 4 ta idoralar orqali boshqarilgan bular : 1. Qo'shbegi – amirlikning bosh vaziri. 2. Otaliq -mang'it amirlarining tayanchi. 3. Devonbegi – moliya idorasi rahbari. 4. Lashkar to'pchiboshisi- harbiy vazir. Amirlik cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib bir vaqtning o'zida diniy va dunyoviy hokimiyat boshlig'i edi. Amir davlatni mansabdor shaxslar amir xizmatchilari orqali boshqarar edi. Buxoro amirlari o'z shajarasini Muhammad payg'ambardan boshlaganliklari sababli ularning unvonlariga “sayid” so'zi qo'shib aytilgan. Amir uning shaxsiy yozishmalarini olib

¹ Zamonov A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari) – Toshkent. 2022.-101- 102 b

² Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2012 –295 б.



boruvchi 2 nafar kotibini doimo oldida olib yurgan. Ular munshiy va mushrif kotiblari hisoblangan. Mushrif - barcha ishlar bo'yicha berilgan ko'rsatmalarni yozib borgan va ma'muriy vakillardan, shaxslardan kelgan iltimosnomalarga javob berish bilan shug'ullangan. Mushrif - amirning shaxsiy kotiblaridan biri bo'lib saroydagi qurol-yarog' tarqatish va shu haqidagi ko'rsatmalarni rasmiylashtirish bilan mashg'ul bo'lgan.³ Viloyat va tumanlarda amirning vakili sifatida beklar va hokimlar tayinlangan bo'lib, ular harbiy, ma'muriy va iqtisodiy boshqaruvni amalga oshirgan.⁴ Buxoro amirligida beklilar huquqiy maqomi bo'yicha bir-biridan farq qilgan. Masalan, Samarqand bekligi nufuzliligi, Qarshi bekligi ko'p hollarda davlat boshlig'i merosxo'ri hokimligi bilan, Chorjo'y bekligi esa urug' davomchilariga, Buxoro bekligi esa qushbegining o'zi tomonidan boshqarilganligi tufayli keng imtiyozlarga ega bo'lgan. Umuman olganda beklilarning maqomi ularning davlat va jamiyatga keltiradigan foydasi miqdoriga bog'liq bo'lgan. 1890-yillarga kelib Darvoz bekligi ma'muriy-hududiy jihatdan 11 ta amlodkorlikka bo'lingan bo'lib, beklilik Darvoza soqchisi Xudoynazar-Otaliqning nevarasi Muhammad Nazarbek tomonidan idora etilgan. beklilik mahalliy boshqaruvida 5 biy, 5 eshikog'asi, 3 to'qsabo, miroxo'rlar, qorovulbegi, jevachi, mirzaboshi, chiroqog'asi va navkarlar ishtirok etishgan.⁵ Buxoro amirligi 11 tumandan tashkil topib, barcha tumanlar Buxoro shahri atrofida joylashgan edi. Bulardan ikki asosiy tuman – Shohrud kanali atrofida bo'lib, ushbu tumanlarning qolgan 9 tumandan asosiy farqi shunda ediki, 38 tumanlarning ma'muriy markazi mavjud emas edi. Shimoliyi Rud va Janubiyi Rud tumanlaridan soliq yig'ish vazifasini Buxoro shahar sadr-raisi xizmatchilari amalga oshirganlar. Qolgan 9 ta tumanni ma'muriy jihatdan tuman qozilari boshqargan. Ko'pgina tumanlar aholi zich joylashgan tuman markazlarining nomi bilan ham ikkinchi nom sifatida yuritilgan. Masalan, Xarkan Rud yoki G'ijduvon tumani kabi. Undan tashqari A.R.Muxamedjanovning ma'lumotlariga qaraganda,

Kamat tumani Vobkand, Somejon tumani Rometan deb atalgan. Mahalliy hududlarni boshqarishni amalga oshirish maqsadida va har bir tumanni tashkil etish

³ Zamonov A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari) – Toshkent. 2022.- 103 b

⁴ Mirza Salimbek. Tarixi Salimiy. – (Ilmiy nashrlar asosida) Toshkent: Sharq, 2000.- 158 b

⁵ To'raev H. Buxoro tarixi.- Buxoro: Durdona, 2020.- 202.203 b



uchun 80 tadan aholi yashash joylari birlashtirilgan. Keyinchalik esa ushbu tumanlarning aholi yashash joylari soni 120 dan 340 taga oshgan. Amirlikda barcha bekliklar ma'muriy markazi bir xil nom bilan atalgan. Aholi yashash joylari sonining ko'pligiga qarab sharqiy bekliklar yuqori mavqega ega bo'lgan.⁶ ingliz olimi G.Uiler Buxoro amirligida markaziy va mahalliy boshqaruv masalalariga oid quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Buxoro amirligining ma'muriy tizimi temuriylar va abbosiy xalifalik qo'l ostida bo'lgan Movarounnahrning eron-arab ma'muriyatidan meros qolgan". G.Uiler ma'muriy boshqaruv masalasida boshqaruv oddiy va erkin bo'lib, ko'proq soliq va o'lponlar undirishga asoslangan edi, - deb ma'lumot beradi.⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқарув тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2012.
2. Mirza Salimbek. Tarixi Salimiy. – (Ilmiy nashrlar asosida) Toshkent: Sharq, 2000.
3. To'raev H. Buxoro tarixi.- Buxoro: Durdona, 2020.
4. Zamonov A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari) – Toshkent. 2022.
5. Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. – Тошкент: 2010.

⁶ Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши. –Тошкент: 2010-37 b

⁷ То'раев Н. Buxoro tarixi.- Buxoro: Durdona, 2020.- 206 b